Важность качества управления на предприятиях общественного питания.....	842
Абдуллаева Зульфия Иззатовна, Махмудов Суннатжон Абдужаббор Угли	
O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari	848
Shaislamova Nargiza Qabilovna	
Mahalliy budjetning qo'shimcha daromadlarini shakillantirish yo'nalishlari.....	856
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	
Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari	860
Ro'zimatova Nigora Abdullaevna	
Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана	869
Айтмуродова Рушана Бахтиеровна	
Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar"dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikasi integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	1081
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	



Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	



YO'L QURILISH TASHKILOTLARIDA YO'L QURILISH KO'LAMINI OSHIRIB, SAMARALI RESURSLAR TAQSIMOTINI ISHLAB CHIQISH



Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li

Renessans ta'lim universiteti, tadqiqotchi
raximovdilshodjon23@gmail.com
ORCID: 0009-0000-7197-8127

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada yo'l qurilishi tashkilotlari faoliyatida qurilish ishlarini kengaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanish strategiyalari yoritilgan. Tadqiqotda iqtisodiy samaradorlikni va qurilish sifati ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan resurslarni samarali taqsimlash usullari tahlil qilingan. Maqolada xalqaro amaliyotga tayanilgan holda O'zbekiston tajribasi o'rganilgan va soha amaliyotiga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yo'l qurilishi, resurslarni boshqarish, samarali taqsimot, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: This article examines strategies aimed at expanding road construction operations and improving resource management efficiency within road construction organizations. It analyzes methods for increasing economic performance and construction quality through optimal resource allocation. The study draws on international practices and Uzbekistan's experience to offer practical recommendations applicable to the sector.

Key words: road construction, resource management, efficient allocation, economic efficiency.

Аннотация: В статье анализируются стратегии расширения масштабов дорожно-строительных работ и повышения эффективности управления ресурсами в дорожных строительных организациях. Рассмотрены методы, направленные на повышение экономической эффективности и качества строительства путем оптимального распределения ресурсов. Основываясь на международной практике, представлены примеры из опыта Узбекистана и даны практические рекомендации для дальнейшего развития отрасли.

Ключевые слова: дорожное строительство, управление ресурсами, эффективное распределение, экономическая эффективность.

KIRISH

Bugungi kunda transport infratuzilmasini rivojlantirish har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va hududiy integratsiyasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, avtomobil yo'llari tarmog'ining kengayishi va ularning sifat ko'rsatkichlarining oshishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki aholining turmush darajasiga va hududlararo aloqalarning mustahkamlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yo'l qurilish sohasi O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda davlat byudjeti hisobidan va xalqaro moliyaviy institutlar ko'magida keng ko'lamli investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.



Biroq, yo'l qurilishi loyihalarining samaradorligi ko'p jihatdan resurslardan oqilona va tejamkor foydalanishga bog'liq. Amaldagi holatda moliyaviy, texnik va inson resurslarining cheklangani tufayli qurilish ishlari kechikishi, loyiha qiymatining oshib ketishi, sifatsiz yakunlanish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa, sohada zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, resurslarni boshqarishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish qurilish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda yo'l qurilish tashkilotlarida resurslarni samarali boshqarish, zamonaviy loyihalarni boshqarish tizimlarini joriy etish va resurs taqsimoti bo'yicha ilg'or mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yo'l infratuzilmasini rivojlantirish va samarali resurslar boshqaruvi masalalari dunyo miqyosida keng ilmiy va amaliy muhokamalarga sabab bo'lib kelmoqda. Jahon bankining yo'l qurilish boshqaruvi bo'yicha tajribalari resurslarni oqilona taqsimlash va loyiha sikllarini aniq rejalashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi. Bu manbada loyiha xarajatlarini nazorat qilish va resurslarni real vaqt rejimida monitoring qilishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan.

Osiyo taraqqiyot banki Markaziy Osiyo mintaqasidagi infratuzilma loyihalari strategiyalarini tahlil qilib, moliyaviy va inson resurslarining integratsiyalashgan boshqaruvi orqali yo'l qurilishi loyihalarining samaradorligini oshirish yo'llarini taklif etgan. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda barqaror infratuzilma qurilishida davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim omil sifatida ko'rilmogda.

AQSh Federal avtomobil yo'llari ma'muriyatining hisobotida resurslarni boshqarishning ilg'or usullari – xususan, qiymat tahlili, hayotiy sikl xarajatlarini hisoblash va ta'minot zanjiri optimallashtirilgan modellar asosida tashkil etilishi ta'kidlanadi. Bu usullar byudjet tejamkorligini oshirish bilan birga, qurilish sifatini ham ta'minlaydi.

Yevropa Komissiyasi qurilish jarayonida resurslardan foydalanishda ekologik va iqtisodiy samaradorlikni muvozanatlashtirish masalalariga e'tibor qaratgan. Ular, xususan, chiqindilarni kamaytirish, materiallar aylanishi va uglerod izini qisqartirish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqqan. Bu yondashuvlar resurslardan foydalanishda nafaqat tejamkorlik, balki barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Koreya Respublikasining infratuzilma boshqaruvi tajribasida "aqlli boshqaruv" yondashuvi orqali qurilishning barcha bosqichlarida ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimi joriy etilgan. Bu esa zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining (masalan, BIM - Building Information Modeling) yo'l qurilishida samarali resurs taqsimoti va sifatni oshirishda o'rni muhimligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham davlat tomonidan yo'l qurilishini rivojlantirish bo'yicha qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan Prezident qarorlari orqali ushbu sohani modernizatsiyalash, zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy qilish va xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Umuman olganda, ilmiy va amaliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yo'l qurilishi tashkilotlarida resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun tizimli yondashuv, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni integratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan O'zbekiston yo'l qurilish tashkilotlarining hisobotlari, davlat statistikasi va xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, ADB) tomonidan e'lon qilingan ochiq manbalar orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslama tahlil, dinamik o'sish ko'rsatkichlari hamda SWOT tahlil usullari orqali chuqur o'rganildi va iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur maqolada aynan yo'l qurilish tashkilotlari faoliyatida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, qurilish ko'lamini kengaytirish va iqtisodiy natijadorlikni ta'minlash imkoniyatlari tahlil qilinadi(1-rasm).



Yo'l qurilishida resurslarni samarali taqsimlash zaruriyatini keltirib chiqaruvchi omillar



1-rasm. Resurslarni samarali taqsimlash zaruriyati

Yo'l qurilishi loyihalarini amalga oshirish jarayonida resurslarning yetishmasligi yoki mavjud resurslardan samarali foydalanilmasligi eng ko'p uchraydigan muammolardan biridir. Ayniqsa, moliyaviy resurslarning cheklanganligi yoki ularning noto'g'ri boshqarilishi oqibatida ko'plab loyihalar belgilangan muddatda yakunlanmaydi. Bu esa nafaqat qurilish muddatlarining cho'zilishiga, balki umumiy xarajatlarning ortishiga ham olib keladi. Moliyaviy resurslar bilan bir qatorda, texnik vositalar va inson resurslarining yetishmasligi ham qurilish jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Masalan, qurilish texnikasining yetishmasligi yoki uning nosoz holatda bo'lishi qurilish ishlarining kechikishiga va ish sifati pasayishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, malakali kadrlarning yetarli emasligi ham bajarilayotgan ishlarining sifat ko'rsatkichlari va unumdorligining pasayishiga olib keladi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va yo'l qurilishi loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur:

Resurslardan foydalanishni rejalashtirish. Qurilish ishlari boshlanishidan oldin moliyaviy, texnik va inson resurslari bo'yicha aniq va batafsil reja tuzish zarur. Bu yondashuv loyihaning har bir bosqichida zarur resurslarning o'z vaqtida yetkazib berilishini ta'minlaydi.

Monitoring va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish. Loyihani amalga oshirish davomida resurslardan qanday foydalanilayotganini va ularning samaradorligini doimiy kuzatib borish zarur. Monitoring orqali resurslarning ortiqcha sarflanishi yoki noto'g'ri taqsimlanishini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkoniyati yuzaga keladi.

Texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida resurslarni boshqarish va rejalashtirish tizimlarini joriy etish muhimdir. Bu orqali qurilish loyihalarida resurslarning optimal miqdori va joylashuvini aniq belgilash mumkin bo'ladi.

Kadrlar salohiyatini oshirish. Inson resurslarini rivojlantirish, ya'ni qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasini oshirish orqali ularning mehnat unumdorligi va ish sifati oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, loyihalarning o'z vaqtida va yuqori sifatda bajarilishiga olib keladi.

Yuqorida ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirish orqali yo'l qurilish tashkilotlari resurslardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yib, qurilish jarayonlarini belgilangan muddatda va yuqori sifatda amalga oshirishga erishadi.


Bugungi kunda yo'l qurilishi sohasida yetakchi bo'lgan davlatlar, jumladan AQSH, Germaniya va Janubiy Koreya tajribalari alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu mamlakatlarda resurslarni samarali boshqarish uchun innovatsion texnologiyalar va kompleks boshqaruv yondashuvlari keng qo'llaniladi.

Masalan, AQSHda yo'l qurilish loyihalari keng ko'lamda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida amalga oshiriladi. Bu yondashuv davlat byudjetiga tushadigan bosimni kamaytirish bilan birga, xususiy sektorning moliyaviy resurslari va ilg'or texnologiyalarini jalb qilish orqali umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, AQSHda yo'l qurilishining har bir bosqichi avtomatlashtirilgan loyiha boshqaruvi tizimlari orqali real vaqt rejimida monitoring qilinadi. Bu tizimlar xatolarni kamaytirish va resurslardan optimal foydalanishni ta'minlash imkonini beradi.



Germaniyada yo'l qurilishi sektorida yuqori aniqlikdagi raqamli texnologiyalar va zamonaviy logistika tizimlaridan foydalaniladi. Har bir qurilish loyihasi doirasida resurslarni kompleks tarzda rejalashtirish, qurilish materiallari va texnik vositalarni aniq boshqarish tizimi mavjud. Germaniyada keng qo'llanilayotgan BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi orqali qurilish jarayonlari va resurslar samarali muvofiqashtiriladi. Bu texnologiya loyiha xarajatlarini kamaytirish, qurilish muddatlarini qisqartirish va yakuniy mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi.

Janubiy Koreyada esa yo'l qurilishi loyihalari davlat tomonidan keng moliyalashtiriladi va zamonaviy boshqaruv tizimlari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, "Smart Monitoring" tizimlari yordamida loyihani amalga oshirishda barcha resurslar real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Bu tizimlar yordamida muammolar tez aniqlanib, darhol bartaraf etiladi. Shuningdek, Janubiy Koreyada yuqori texnologiyali qurilish uskunalari va raqamli nazorat vositalarining keng qo'llanilishi soha samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.



2-rasm. O'zbekiston uchun tavsiyalar.

O'tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, O'zbekistonda yo'l qurilishi sohasida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mavjud muammolarni bartaraf etish va xalqaro ilg'or tajribalardan unumli foydalanish orqali ushbu sohani modernizatsiyalash imkoniyatlari mavjud. Quyidagi amaliy tavsiyalar ushbu maqsadga erishishda muhim o'rin tutadi:

Integratsiyalashgan raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qilish. Yo'l qurilish tashkilotlarida yagona integratsiyalashgan raqamli platformalarni joriy etish orqali loyihalarning barcha bosqichlarini real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish imkoniyati yaratiladi. Bu resurslar sarfini optimallashtiradi, isrofgarchilikning oldini oladi va boshqaruvni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini kengaytirish. Moliyaviy resurslarning diversifikatsiyasini ta'minlash va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish uchun DXSh asosidagi loyihalarni kengroq joriy etish muhim. Bu xususiy sektor mablag'lari va texnologiyalaridan keng foydalanish imkonini beradi, umumiy investitsiya salohiyatini oshiradi.

Inson resurslari salohiyatini rivojlantirish. Malakali kadrlar yo'l qurilishi sohasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli maxsus o'quv dasturlari, malaka oshirish kurslari va xalqaro amaliyotlarni tashkil etish orqali xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va mehnat unumdorligini oshirish lozim.

Innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash. Qurilish ishlarida zamonaviy texnologiyalardan, xususan, BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi, dronlar, avtomatlashtirilgan texnik vositalardan foydalanish qurilish jarayonlarining rejalashtirilishini aniq qiladi, muddatlarni qisqartiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Qonunchilik bazasini takomillashtirish. Yo'l qurilishi sohasidagi normativ-huquqiy asoslarni xalqaro standartlarga moslashtirish, DXSh loyihalarini ro'yobga chiqarishda huquqiy soddalashtirishlar kiritish, xorijiy investorlarga qulay va barqaror muhit yaratish muhim strategik vazifa hisoblanadi.



Umuman olganda, mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etish orqali O'zbekistonda yo'l qurilish sohasining iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish va transport infratuzilmasining raqobatbardoshligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yo'l qurilish tashkilotlari tomonidan resurslarni samarali boshqarish orqali qurilish ko'lamini kengaytirish, sifatni oshirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O'zbekistonda transport infratuzilmasi rivojiga katta e'tibor qaratilayotgan bir paytda, mavjud resurslardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xalqaro tajribani o'rganish va zamonaviy boshqaruv uslublarini mahalliy sharoitga mos ravishda tatbiq etish orqali sohada samaradorlikni oshirish mumkin.

Yo'l qurilishida samarali boshqaruvni ta'minlash uchun, eng avvalo, resurslarni rejalashtirish va taqsimlash jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida amalga oshirish zarur. Bu orqali ish jarayonlarida aniqlik ta'minlanadi, resurslarning ortiqcha sarflanishi oldi olinadi va umumiy xarajatlar kamayadi.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) va boshqa innovatsion moliyaviy mexanizmlarni keng joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash lozim. Ushbu mexanizmlar byudjet bosimini kamaytirish bilan birga, xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish imkonini yaratadi. Natijada yo'l qurilish loyihalarini tezroq va samaraliroq amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, inson kapitaliga investitsiyalar kiritish ham sohaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Malakali kadrlarni tayyorlash, ularning bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirib borish orqali qurilish jarayonlarining sifati va samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bu esa, o'z navbatida, loyihalarning belgilangan muddatlarda va yuqori sifat bilan yakunlanishini ta'minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalardan, jumladan BIM (Building Information Modeling), dron texnologiyalari, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari kabi innovatsiyalardan foydalanish yo'l qurilishida sifatli o'zgarishlarga olib keladi. Ushbu texnologiyalar yordamida qurilish jarayonlari tezlashadi, resurslar optimal taqsimlanadi va inson omiliga bog'liq xatoliklar kamayadi.

Yuqorida bayon etilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali O'zbekiston yo'l qurilish tashkilotlari nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorda ham yuqori raqobatbardosh darajaga ko'tarilishi mumkin. Natijada, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mustahkam va zamonaviy transport infratuzilmasi barpo etiladi. Bu esa hududlararo integratsiyani kuchaytiradi va umummilliy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. Road Construction Management: Best Practices and Guidelines. 2022.
2. Asian Development Bank. Infrastructure Development Strategies in Central Asia. 2021.
3. Federal Highway Administration (USA). Effective Resource Management in Road Construction Projects. 2020.
4. OECD. Infrastructure Investment and Public-Private Partnerships. 2021.
5. European Commission. Resource Efficiency in Construction. 2022.
6. Ministry of Land, Infrastructure, and Transport (South Korea). Smart Infrastructure Management. 2022.
7. BIM Handbook. Building Information Modeling for Construction. 2019.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>